


“Open bank” aksiyadorlik jamiyati

Kuzatuv kengashining

2025-yil 21 - oktabr dagi

21-10/1 -sonli yig'ilish bayonnomasiga

1 -ilova



**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING
AUDIT QO'MITASI
NIZOMI**

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur "Open bank" aksiyadorlik jamiyatining Audit qo'mitasi Nizomi" (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom "Open bank" aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi) Audit qo'mitasi huquqiy maqomini va faoliyat yuritishini belgilaydi, Bank Audit qo'mitasi (keyingi o'rinlarda Qo'mita deb yuritiladi) tomonidan qonunchilik hujjatlariga va Bank Ustaviga muvofiq o'z vakolatiga kiritilgan qarorlar qabul qilinishini tartibga soladi.

2. Qo'mita o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik hujjatlari, Bank Ustavi va mazkur Nizom hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlariga amal qiladi.

3. Qo'mita o'z vakolat doirasidagi masalalarni chuqur o'rganadi hamda ular bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqadi, shuningdek, Bank Kuzatuv kengashining nazoratga doir vazifalarini bajarishida unga ko'maklashadi.

4. Qo'mita a'zolari Bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko'maklashishi hamda o'z vazifalarini, vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog'ida Bankning, aksiyadorlarning va omonatchilarning qonuniy manfaatlarini inobatga olib ish yuritishi hamda o'z manfaatlaridan yuqori qo'yishlari lozim.

2-bob. Qo'mita tarkibi va ish faoliyatini tashkil etilishi

5. Qo'mita Bank Kuzatuv kengashining a'zolari tarkibidan tashkil topadi va Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.



Qo'mita tarkibi uchta a'zodan iborat bo'lib, ular oliy ma'lumotga hamda audit xizmatining maqsadi va vazifalariga mos keluvchi malaka va tajribaga ega bo'lishi lozim. Qo'mitaning kamida bitta a'zosi audit, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot bo'yicha tajribaga ega bo'lishi kerak.

Qo'mitaning ko'pchilik a'zolari Bankka aloqador shaxslar bo'lmasligi lozim, bundan ularning Bank Kuzatuv kengashidagi a'zoligi mustasno.

Bank Kuzatuv kengashi raisi Qo'mita raisi bo'lishi hamda Qo'mita raisi bir vaqtning o'zida Bankning boshqa qo'mitalari raisi bo'lishi mumkin emas.

6. Qo'mita a'zosi hisoblangan Bank Kuzatuv kengashi a'zosining Bank Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqarilishi, uning Qo'mitadagi a'ziligining tugatilishiga olib keladi va Bank Kuzatuv kengashining navbatdagi yig'ilishida Qo'mitaning yangi a'zosi saylanadi. Qo'mitaning yangi a'zosi saylanguncha, Qo'mita o'z faoliyatini joriy tarkibda yuritadi.

7. Qo'mita Bank Kuzatuv kengashi qaroriga asosan tashkil etiladi va u doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organ hisoblanadi.



Qo'mita bevosita Bank Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi. Bank Kuzatuv kengashi Qo'mitaga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarning ijrosini doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

8. Qo'mita raisi Qo'mita ishini tashkil etadi. Jumladan, Qo'mitaning yillik ish rejasini tasdiqlaydi, Qo'mita yig'ilishini chaqiradi va unga raislik qiladi, Qo'mita yig'ilishining kun tartibini belgilaydi, Qo'mita qarorlari ijrosini nazorat qiladi, Qo'mita ish faoliyati natijalari bo'yicha axborot beradi va Qo'mita vakolatlari doirasida boshqa ishlarni tashkil etadi.

9. Qo'mita yig'ilishi yillik ish rejasiga asosan va/yoki zaruratga ko'ra, lekin chorakda kamida bir marotaba o'tkazilishi lozim. Qo'mita yig'ilishlari Qo'mita a'zolarining kamida 2/3 qismi ishtirok etgan holda vakolatli bo'ladi.

Qo'mita qarorlari yig'ilishda ishtirok etgan Qo'mita a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va Qo'mita yig'ilishi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Qo'mita yig'ilishlari texnika vositalari (videokonferens-aloqa) orqali ham o'tkazilishi va tegishli qarorlar qabul qilinishi mumkin.

Qo'mita a'zosi kun tartibidagi masala yuzasidan affillangan shaxs bo'lgan holatda qaror Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Bankning affillangan shaxsi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilinishida muhokamada ishtirok etishga va ovoz berishga haqli emas.

10. Ichki audit boshqarmasi Qo'mitaning ishchi organi sifatida Qo'mita majlisi kun tartibidagi masalalar bo'yicha hujjatlarni to'playdi (yig'adi) va ularni Qo'mita majlisiga kiritadi hamda Qo'mita yig'ilishlari bayonnomalarini ro'yxatdan o'tkazadi va saqlaydi.

11. Qo'mita yig'ilishida bayonnoma yuritiladi. Qo'mita yig'ilishining bayonnomasi yig'ilish o'tkazilganidan so'ng 3 (Uch) kundan kechiktirmay tuziladi. Yig'ilish bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

yig'ilish o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

yig'ilishda hozir bo'lgan shaxslar;

yig'ilishning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.



Qo'mita yig'ilishining bayonnomasi yig'ilishda ishtirok etgan Qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadi.

Qo'mita yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan so'ng Bank Boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi.

3-bob. Qo'mitaning asosiy vazifalari va vakolatlari

12. Qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki audit boshqarmasi faoliyatini mustaqilligini va xolisligini ta'minlash;



har bir ichki audit yakunlari bo'yicha taqdim etilgan hisobotlarni o'rganish;
ichki audit boshqarmasining choraklik hisobotlarini o'rganib chiqish va Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

tashqi auditor hisoboti va xulosalarini ko'rib chiqish va ularni Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

moliyaviy hisobot va ichki audit siyosati (yoki nizomi)ni ishlab chiqish hamda tasdiqlash jarayonida ishtirok etish;

ichki audit dasturini ishlab chiqish hamda tasdiqlash jarayonida ishtirok etish;
nazoratga oid, moliyaviy va boshqa hisobotlarning taqdim etilishini, to'liqligini, ishonchliligini nazorat qilish;

Bankning ichki nazorat tizimi va ichki auditi faoliyati samaradorligi va monandligini ta'minlash uchun ularni baholash;

ichki audit tekshiruvlari rejasini va tekshiruvlarning davriyligini ko'rib chiqish;
har chorakda kamida bir marotaba ichki audit boshqarmasi faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilish;

tashqi auditor takliflarini baholashda Bank Kuzatuv kengashiga amaliy yordam berish, tashqi auditorni tanlashda Bank Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

ichki va tashqi audit tomonidan aniqlangan kamchiliklarning Bank Boshqaruvi tomonidan o'z vaqtida bartaraf etilishini nazorat qilish;

Bank Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

13. Qo'mita vakolatlari quyidagilardan iborat:

har yilgi mustaqil auditorlik tekshiruv natijalaridan va ichki audit boshqarmasi materiallaridan o'z faoliyatida foydalanish, shuningdek zarurat tug'ilganida Bankning birlamchi buxgalterlik hujjatlariga murojaat qilish;

ichki audit boshqarmasi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ichki audit boshqarmasi tarkibini tashkil etish bo'yicha o'z talablarini ishlab chiqish;

ichki audit boshqarmasi faoliyatiga doir ichki meyoriy va boshqa hujjatlarni ko'rib chiqish va o'z vakolati doirasida tasdiqlash;

Bank Boshqaruviga ichki audit boshqarmasi faoliyatiga doir taklif va topshiriqlash berish;

ichki audit boshqarmasi yillik xarajatlar smetasini ishlab chiqilishida ishtirok etish;


ichki audit tekshiruvlari rejasini o'zgartirish, muvofiqlashtirish yoki qo'shimcha tekshiruvni belgilash;

ichki audit bo'yicha choraklik va yillik yakuniy hisobotlarni ichki audit boshqarmasi rahbaridan qabul qilish;

ichki audit boshqarmasi faoliyati yuzasidan Bank Kuzatuv kengashiga takliflar berish;

ichki audit faoliyatining mohiyati va hajmini ko'zdan kechirish;

Bankning ma'muriy va operatsion tizimlari ichki nazorat tuzilmalarining



openbox	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: II-47
	Sana: "22" oktabr 2015 yil

samaradorligini kuzatib borish.

ichki audit boshqarmasi rahbarini tayinlash (yoki lavozimidan ozod qilish) masalasi bo'yicha Bank Kuzatuv kengashiga taklif kiritish;

ichki audit boshqarmasi rahbari taklifiga asosan ichki audit boshqarmasi xodimlarini lavozimiga tasdiqlash, ishga qabul qilish va lavozimidan ozod qilish;

amaldagi qonun hujjatlari, Bank Ustavi va boshqa ichki meyoriy hujjatlar bilan belgilangan boshqa vakolatlar.

4-bob. Qo'mita a'zolarining huquq va majburiyatlari

14. Qo'mita a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Bank Boshqaruvidan va tarkibiy tuzilmalaridan o'z vakolati doirasidagi ish faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha hujjat, ma'lumot va materiallarni olish hamda tushuntirishlar so'rash;

xizmat zarurati yuzasidan Bankda o'tkaziladigan tashqi va ichki audit tekshiruvi, nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvi materiallari (hisobotlar, dalolatnomalar, ma'lumotnomalar va shu kabilar)dan foydalanish hamda birlamchi buxgalteriya va boshqa hujjatlar bilan tanishib chiqish;

Bank faoliyati sohalaridagi ichki nazorat tizimi holatini yaxshilash bo'yicha o'z tavsiyalarini ishlab chiqish;

Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan o'z faoliyati bo'yicha muayyan ish haqi olish;

amaldagi qonun hujjatlari, Bank Ustavi va boshqa ichki meyoriy hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

15. Qo'mita a'zolarining majburiyatlari:

ichki audit tekshiruviga oid barcha hujjatlar va materiallarni sinchiklab o'rganish, o'rganish natijalarini Qo'mita yig'ilishida muhokama qilish;

ichki audit tekshiruvi natijalari, Qo'mita faoliyati hamda Bankdagi nazorat holati yuzasidan doimiy ravishda Bank Kuzatuv kengashiga hisobot berish;

Bank Kuzatuv kengashini Bankning xavf-xatarlari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish;



Qo'mita ishida va yig'ilishlarida ishtirok etish;

bank va tijorat sirini saqlash, o'z vazifalarini bajarish uchun foydalanishga berilgan va sir saqlanadigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.

5-bob. Qo'mita a'zolarining javobgarligi

16. Qo'mita a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda o'z burchlarini bajarishda Bank manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim. Qo'mitaning a'zolari qonun hujjatlari va Bank Ustaviga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hamda Bank Kuzatuv kengashi oldida javobgardir.

17. Qo'mita yig'ilishida ovoz berishda qatnashmagan yoki Bankka ziyon yetishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan Qo'mita a'zolari javobgarlikdan ozod qilinadi.



6-bob. Yakuniy qoidalar

18. Mazkur Nizomga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

19. Ushbu Nizom talablariga rioya qilinmagan mas'ullar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

20. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

21. Ushbu Nizomning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>II-47</u>
	Sana: "№ 22" <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil



07.10.2026

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“ 07 ” 10 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining audit qo'mitasi nizomi (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning audit qo'mitasi huquqiy maqomini va faoliyat yuritishini belgilaydi, Bankning audit qo'mitasi tomonidan qonunchilik hujjatlariga va Bankning Ustaviga muvofiq o'z vakolatiga kiritilgan qarorlar qabul qilinishini tartibga soladi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Kuzatuv kengashining qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning
Yuridik boshqarmasi boshlig'i
S.I. Salimov